



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 йил 17-апрель, № 78 (8973)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



ANDIJONDAGI ISLOHOTLAR HAR BIR OILA, HAR BIR INSON HAYOTIDA YAQQOL SEZILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatida bo'ldi.



16-aprel kuni Buloqboshi tumanida davlatimiz rahbari raisligida Andijon viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Andijonda yangi O'zbekiston shukhi har bir tuman, har bir mahallaga kirib borayotgani qayd etildi. O'tgan yili viloyatda 4 mingdan ziyod yangi tadbirkorlar ish boshlagan. 450 ming aholi ishli bo'lgan.

Viloyatda 1,5 million kvadrat metr turarjoy va 850 ming kvadrat metr noturarjoylar qad ko'tardi. Buning hisobiga o'tgan yili savdo va xizmatlar 13 foizga, sanoat 7,5 foizga oshdi.

Lekin hayot bir joyda to'xtab turmaydi. Andijonda iqtisodiy salohiyat, yangi loyihalar va tashabbuslar ko'p.

Yig'ilishda kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya va eksportni ko'paytirish, qurilish, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish borasidagi vazifalar muhokama qilindi.

Avvalo, 2025-yilda Andijon viloyatida kamida 6 foiz iqtisodiy o'sishni ta'minlab, yalpi hududiy mahsulotni 105 trillion so'mdan oshirish, 305 ming aholini band qilib, 150 ming odamni kambag'allikdan chiqarish imkoniyati ko'rsatib o'tildi.

Masalan, Andijonda dastgohsozlik sanoati yaxshi shakllangan. Lekin ikki yilda viloyatga chetdan 1 milliard dollarlik asbob-uskunalar import qilingan. Agar ularni o'zimizda tayyorlash o'zlashtirilsa, iqtisodiyotga qo'shimcha tushum, odamlarga ish o'rni bo'ladi. Bunday tashabbuslarni qo'llab, sertifikat va zarur buyumlar olishiga ko'maklashish kerak.

Shuningdek, mashinasozlik-konstruktorlik ishlab chiqarish markazlari tashkil etiladi. Sanoat tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan import uskunalarining texnik ko'rsatkichlari o'rganilib, mahalliy korxonalariga muqobilari taklif qilinadi. Bunday uskunalarini mahalliyashtirish istagidagi tadbirkorlarga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit beriladi.

Viloyatdagi 13 ming gektar adirga suv chiqarib, bemaol ekin ekish mumkin. Lekin u yerlarga suv chiqarishda nasos ishlatish uchun elektr narxi dehqonlarga og'irlik qiladi. Shu bois quyosh paneli o'rnatish uchun moliyaviy instrumentlar qo'llanadi. Qo'rg'ontepada 300 gektar adirlikda sanoat usulida intensiv bog' va uzumzor barpo etilib, tadbirkorlarga tayyor holda taklif qilinadi.

Boshqa hududlardagi samarasiz issiqxonalar Andijonga ko'chirilib, aholiga lizingga beriladi. Mahallalarga arzon urug' va mineral o'g'it yetkaziladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Baliqchi va Oltinko'lda 5 gektardan issiqxonaga tashkil etib, 100 ta ehtiyojmand oilani daromadli qilgan. Endi bu Ulug'nor, Paxtaobod,

Xo'jaobod, Marhamat va Andijon tumanlarida ham yo'lga qo'yiladi. Bunday zamonaviy issiqxonalar namunaviy tashkil qilgan mahalla raislariga 100 foiz ustama beriladi.

Viloyatdagi sun'iy suv havzalarining atigi 23 foizida intensiv usulda baliq yetishtirilyapti xolos. Osiyo taraqqiyot bankidan 15 million dollar jalb etib, 320 gektarda intensiv usulda baliq yetishtirish, 500 ta xonadon bilan kooperatsiya qilish loyihasi ishlab chiqilgan. Mutasaddilarga bu loyihani nazoratga olish, umuman, respublikada baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Andijonda turizm salohiyati ham yuqori. Xonoboddagi Kampirovot, Buloqboshidagi Shirmonbuloq, Xo'jaoboddagi Tosh ota mahallalarida turizm maskanlari tashkil qilib, sayyohlarni ko'paytirish imkoniyati bor. Bu yil sohada 125 million dollarlik 25 ta loyihani yakunlash, 3,5 million xorijiy va mahalliy sayyoh jalb qilib, turizm eksportini 200 million dollardan oshirish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda investitsiya va eksport masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu yil xorijiy investitsiyalar hajmi 3,1 milliard dollarga yetkazilishi, 1 milliard dollarlik 23 ta yirik, 321 ta kichik va o'rta loyiha ishga tushirilishi qayd etildi. Eksportni 1,5 milliard dollarga, mahalliyashtirish hajmini 10 trillion so'mga olib chiqish imkoniyati bor.

Har yili Andijondan Qirg'izistonga 200 million dollarlik eksport bo'lyapti. Chegaradan 5 ming dollarlikkacha bo'lgan mahsulotni qo'lda olib o'tishga ruxsat berilgani natijasida yana millionlab dollarlik tovar sotilyapti. O'zaro savdoni kengaytirish uchun Qo'rg'ontepa va Xo'jaobodda erkin savdo va sanoat zonalarini tashkil qilish taklifi bildirildi.

Viloyatdagi 360 ta bo'sh va samarasiz ko'chmas mulkni qulay shartlarda auksionga chiqarib, tadbirkorlik loyihalariga zamin yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Suv oqimi yuqori bo'lgan ariq va kanallarda 75 megavatt quvvatga ega kichik va mikroGESlar qurish imkoniyati bor. Bunda qatnashadigan tadbirkorlarga 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yilga 12 foiz stavkada kredit beriladi.

Qurilish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ham vazifalar ko'p. Xususan, bu yil 9 ming 700 xonadonli 245 ta ko'p qavatli uy quriladi. Bu sohada 10 ming nafar aholining bandligi ta'minlanadi. Ming kilometrdan ziyod yo'l va ko'priklar ta'mirlanadi.

Xonobod — Andijon magistrat suv quvurining quvvati yetishmasligi sababli 6 ta tumandagi 510 ming aholiga suv yetkazib berishda muammolar bor. Shu bois Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida ushbu quvurning 2-tarmog'ini qurish zarurligi ta'kidlandi.

Qo'shni davlatlar bilan bog'lovchi yo'llarning o'tkazuvchanligini oshirish, Andijon shahri bilan tumanlar o'rtasida jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ijtimoiy yo'nalishlar aholi turmushida bevosita aks etadi. Andijonda bu yil yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti ulushi 40 foizga yetkaziladi. 15 ming nafar texnikum bitiruvchisining bandligi ta'minlanadi. 6 ming talaba dual ta'lim bilan qamrab olinadi. Oliy ta'limning muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot, agrar yo'nalishidagi 4 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Shu maqsadda, jumladan, tibbiyot ta'limi va turizmni rivojlantirish, mahallalarda tunu kun xizmat ko'rsatadigan xususiy tibbiyot punktlarini ko'paytirish choralarini belgilandi.

Ma'lumki, salohiyati va ko'nikmasini oshirgan maktab direktorlarini rag'batlantirish yo'lga qo'yilgan. Endi bu tizim texnikumlarda ham joriy qilinadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili Bobur shahrida rassomlar festivali o'tkaziladi. G'oliblarga Prezident sovg'asi sifatida avtomobil berilishi e'lon qilindi.

— Bugun Andijon rivojini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha eng muhim vazifalarni belgilab oldik, barcha masalalarga to'xtalib, viloyat uchun zarur mablag'larni ham hal etdik, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Agar barchamiz bir bo'lib, hamijahat bo'lib ish olib borsak, yutuqlarimiz yanada ko'payadi, biz zabt etolmaydigan marraning o'zi bo'lmaydi, Andijon yanada obod bo'ladi.

Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar va boshqa mutasaddilar o'z yo'nalishlari bo'yicha axborot berdi. Viloyat hokimi, 16 ta shahar va tuman hokimi aholi va tadbirkorlarni har kuni eshitib, hozirgi sur'atni saqlab qolishi, dunyodagi iqtisodiy tebranishlar sharoitida favqulodda mas'uliyat olishi lozimligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Buloqboshi tumanidagi "Fayz-M" korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xomashyoni qayta ishlab, qo'shilgan qiymat yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur korxonada ham mato to'qish, bo'yash va tayyor trikotaj ishlab chiqarish yo'nalishidagi yirik loyihalardan biri.

Bu yerda yiliga 4 million 200 dona, 50 turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Mingga yaqin fuqarolar ish bilan ta'minlangan. Xodimlar malakasini oshirish ham e'tiborda. Buning uchun dizaynerlik markazi tashkil etilgan.

Turkiya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan ilg'or uskunalar ish unumdorligi va mahsulotlar sifatini ta'minlamoqda. Tayyor kiyim-kechaklarning katta qismi eksportga yo'naltiriladi. Yillik eksport salohiyati 6 million dollarga yetgan.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini va tayyor mahsulotlarni ko'zdan kechirdi. Sifat ko'rsatkichlari ustida ishlab, qo'shilgan qiymatni oshirish va eksport geografiasini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi "Imkoniyatlar olami" hududiy ijtimoiy xizmatlar markazida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi, aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi asosida insonni qadrlash ko'lami kengaydi, bu sohadagi xizmatlar ehtiyojmandlarga yaqinlashtirilmog'da. Ayni yo'nalishdagi ishlarning davomi sifatida shu yil 3-fevralda "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Uning ijrosi doirasida ilk bor Andijonda "Imkoniyatlar olami" hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi ishga tushdi.

Qariyb 5 gektar maydonga ega muassasada ma'muriyat, faollar zali, inklyuziv ta'lim va kasbga o'rgatish binolari, bolalar maydonchasi, sport majmuasi va suzish havzasi mavjud.

Bu yerda nogironligi bor bolalar, o'zgaruvchan parvarishga muhtoj shaxslarga qatnov asosida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Jumladan, ijtimoiy va tibbiy reabilitatsiya xizmati, kasbga yo'naltirish, xorijiy tillarni o'qitish xizmatlari hamda kambag'al oilalar bolalari uchun qo'shimcha ta'lim xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Markazda 60 nafardan ziyod xodimlar faoliyat yuritadi. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarni aniqlash hamda bu yerga yo'naltirish "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Prezident yurtimizda ilk bor tashkil etilgan erta aralashuv xizmati bilan tanishdi. Bu bo'lim chaqaloqlikdan uch yoshgacha bo'lgan bolajonlarni parvarishlashga ixtisoslashtirilgan. Shu vaqtgacha bunday yoshdagi bolalar faqatgina ota-onasi qaramog'ida bo'lgan. Maxsus bog'chalarga esa faqat 3 yoshdan keyin qabul qilingan.

Endilikda homiladorlik vaqtida nogironlik xavfi aniqlansa, onalarga shu binoda xizmat ko'rsatiladi. Bu ularning farzandlariga bo'lgan e'tiborini mustahkamlashga ko'maklashadi. Shuningdek, ular uchun psixologik maslahatlar beriladi.

Prezidentimiz markazdagi qo'shimcha ta'lim xizmatiga mo'ljallangan binodagi sharoitlar bilan tanishdi. U yerda nogironligi bor bolalarning maktabdan tashqari dars qilishlari, ilm olishlari, internetdan foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari, kambag'allik reestrindagi oilalar

farzandlari ham kelib ingliz, rus, koreys va boshqa tillarni o'rganishi mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, yilning o'tgan davrida Andijon viloyatida 10 mingga yaqin kambag'al oilalarning farzandi bog'chalarga joylashtirildi, qariyb 29 ming nafariga tibbiy ko'mak ko'rsatildi, 20 ming nafari ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi. Bu esa ularning "oyoqqa turib", ish bilan band bo'lishiga yordam beradi.

Markazda kunduzgi parvarish xizmati ham yo'lga qo'yilgan. Bu yerda nogironligi bo'lgan insonlar jismoniy va aqliy mashg'ulotlar bilan shug'ullantiriladi. Ularga ijtimoiy xodimlar qarab turishi natijasida oilasidagilarning "qo'li bo'shab", ishlashi mumkin bo'ladi.

Mazkur bo'limda parvarishlanayotgan fuqarolar bunday g'amxo'rlik tufayli hayotga qaytganini aytib, davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

— Bu e'tibor zamirida sizning sog'ligingiz, yaqinlaringizning dardu tashvishlari bor. Ko'nglingiz ochilib, hayotga umid uyg'onganini ko'rib, xursand bo'ldim. Bunday g'amxo'rlikni yanada kengaytirib boramiz. Sizlardan faqat sabr-toqat, ishonch va harakat zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ijtimoiy xizmatlar markazida sport majmuasi ham bor. Unda nogironligi bor bolalar uchun mo'ljallangan badantariya xonasi, suv havzasi tashkil etilgan. E'tiborli jihati, mashg'ulot qurilmalari AQSH va boshqa xorijiy davlatlardan keltirilgan bo'lib, adaptiv sportga mo'ljallangan. Suv havzasi ham bolalarning yoshiga monand alohida quylayliklarga ega.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatidagi cheklangan bolalarni sog'lomlashtirish, katta yoshdagi insonlarni o'ziga mos hunar va mashg'ulotlarga jalb etish muhimligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Andijon viloyatidagi ijtimoiy xizmatlar markaziga tashrif chog'ida sport sohasi va olimpiya harakatiga oid taqdimot bilan ham tanishdi.

Bugungi kunda yurtimizda 10 milliondan ziyod aholi ommaviy sport bilan shug'ullanmoqda. Tumanlarda, ta'lim va mehnat jamoalarida turli musobaqalar o'tkazilmoqda.

Endi bu ko'rsatkichni 15 millionga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun "Mahalla ligasi", "Maktab ligasi", "Talabalalar ligasi", "Vazir kubogi" va "Kasaba uyushmalari kubogi" kabi musobaqalar tashkil etiladi.

Shu yil 13-fevral kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida sportchi yoshlarni saralash va mahoratini oshirish bo'yicha topshiriqlar berilgan edi. Shunga muvofiq seleksiya, sport ta'limi va olimpiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish ishlari boshlangan.

Bunda hududlardagi 254 ta sport maktabi, olimpiya yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan 56 ta sport maktabi milliy terma jamoalarga asosiy zaxira bo'ladi. Joylardan saralangan yoshlar tana antropometriyasi va qobiliyatidan kelib chiqib, maqsadli tayyorlanadi.

Ular pishitib borish uchun yiliga ikki marta "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqalar tizimi yo'lga qo'yiladi. Viloyat bosqichi g'oliblari har yili dekabrda Olimpiya shaharchasida o'tkaziladigan "Prezident Olimpiadasi"da ishtirok etadi. Musobaqa g'oliblari uy, avtomobil kabi qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi. Birinchi va ikkinchi o'rinni olgan sportchilar Respublika olimpiya va paralimpiya markaziga qabul qilinadi.

Prezidentimiz sport ta'limida vertikal tizimni takomillashtirib, ilg'or uslub va yondashuvlarni tatbiq qilish zarurligini ta'kidladi. Sport maktablarining natijadorligini oshirish, qobiliyatli yoshlarni yetuk sportchilar etib tarbiyalash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrif davomida hududda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirayotgan xorijiy kompaniyalar vakillari bilan uchrashdi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, bu yil Andijonda quvvati 24 megavatt, keyingi yil yana 20 megavatt bo'lgan jami 763 ta kichik va mikroGESlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Xitoy kompaniyalaridan biri viloyatda mikroGESlar uchun kerakli uskunalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi. Qayd etilganidek, qurilgan GESlarga 1 yil davomida bepul servis xizmati ko'rsatiladi.

Kuni kecha Bobur shahrida keng ko'lami bunyodkorlik ishlari amalga oshirilishi e'lon qilingan edi. Ko'plab sarmoyadorlar shahar qurilishida ishtirok etishga qiziqish bildirmog'da.

Jumladan, xitoylik investor 250 million dollar investitsiya hisobiga zamonaviy majmua qurmoqchi. Loyihaga muvofiq 55 gektar hududda biznes markazi, mehmonxona, savdo markazlari va 3 ming xonadonga mo'ljallangan uy-joy quriladi.

Uchrashuvda shu va boshqa loyihalar to'g'risida batafsil ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga investitsiyalarni ko'paytirish, investorlar bilan yaqindan ishlab, zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrif yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA "YO'L XARITASI" KO'RIB CHIQILDI

Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyaning navbatdagi yig'ilishida milliy komissiya a'zolari, mutasaddi vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Yig'ilish

Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi T. Norboeva olib borgan majlisda 2024-yil davomida mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar, ko'rilgan choralar, mavjud muammolar hamda 2025-yilga rejalashtirilgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Milliy ma'ruzachi tomonidan odam savdosiga qarshi kurashish va munosib

mehnat masalalari yo'nalishida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yuzasidan Prezidentga axborot kiritilgani ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, odam savdosiga qarshi kurashish, fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlash, yo'nalishga doir quvunchilik asoslarini xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish maqsadida 2024-yilda jami 30 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, Xalqaro mehnat tashkilotining 5 ta konvensiyasi ratifikatsiyadan o'tkazildi.

Odam savdosiga oid jinoyatlarni aniqlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Bunday jinoyatlardan jabrlangan shaxslarga tibbiy-psixologik va huquqiy yordam ko'rsatildi, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, uy-joy muammolarini hal qilishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Shu bilan birga, hududlarda odam savdosiga qarshi kurashish, munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish borasidagi muammoli masalalar muhokama qilindi.

Majlisda odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Ichki ishlar vazirligi, munosib mehnat masalalari yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rahbarlari, hududiy komissiyalar vakillarining axborotlari eshitildi.

Milliy komissiya tomonidan tegishli vazirlik

va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2025-yilda odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborotda bildirilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ("Yo'l xaritasi") loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Odam savdosiga qarshi kurashish kichik komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Odam savdosiga qarshi kurashish konsepsiyasi loyihasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ko'rib chiqilib, ma'qullandi.

Kun tartibi doirasida muhokama etilgan masalalar yuzasidan milliy komissiyaning tegishli qarori qabul qilinib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".



KUN TARTIBIDA — RATIFIKATSIYA MASALASI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining navbatdagi majlisida O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomani (Toshkent, 2024-yil 23-avgust) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Senat qo'mitasida

Majlisda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari a'zolari, mutaxassis va ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur Shartnoma Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev tomonidan 2024-yil 23-avgust kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi davlatlararo oliy kengashining birinchi yig'ilishi doirasida imzolangan.

Shartnoma ikki davlat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlatlararo munosabatlarining yangi bosqichini shartnomaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, hujjatda tomonlarning bir-birlariga qarshi qaratilgan hech qanday blokler yoki ittifoqlarda qatnashmasligi hamda birligining fikri bo'yicha ikki davlatning strategik sherikligi va ittifoqchilik munosabatlariga zarar yetkazadigan har qanday harakatda ishtirok etishdan o'zini tiyib turish kabi majburiyatlarini belgilagan.

Aytilganidek, mazkur Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stona aloqalar va strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, siyosiy hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ikki mamlakatning hududlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni kuchaytirish, logistika, energetika, sanoat, ta'lim va turizm kabi sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

MAQSAD – AHOLI UCHUN XAVFSIZ MUHIT YARATISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikka ta'minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarliklar yuz berishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralarini tizim orqali hal qilish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissinin shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Senator va hayot

Shu bilan birga, mahallalarda xavfsiz muhit yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, qonunbuzarliklarning asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifalardandir.

Xususan, Prezident raisligida korruptsiyaga qarshi kurashishga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda ushbu yo'nalishdagi qat'iy siyosatning asosiy maqsadlari va kelgusi vazifalari aniq belgilab berilgan edi. Ulardan kelib chiqib, parlamentning ishchi guruhi tomonidan Namangan viloyati mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar o'rganilmoqda.

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi A. Eshmuratov boshchiligidagi ishchi guruh Namangan viloyatining Norin, Chortoq, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlarida respublikada xavfsiz muhitni yaratish tizimini takomillashtirishga qaratilgan Prezident qarori ijrosi bo'yicha o'rganishlar olib bordi.

"Xalq so'zi".

HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova Latviyaning "Marta" markazi rahbari Iluta Latse bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Unda gender zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish masalalari muhokama qilindi.

Muloqot chog'ida mazkur yo'nalishda faoliyat yuritayotgan NNT va manfaatdor tashkilotlar uchun xalqaro standartlarga asoslangan ish uslublarini ishlab chiqish, amalda joriy etish hamda mutaxassislar tayyorlash muhimligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, ayollar va

"Xalq so'zi".

bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, bu sohada hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari hamda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qo'shma loyihalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Iluta Latse O'zbekistondagi demokratik islohotlar jarayonini yuqori baholab, parlamentning jamiyatni isloh qilishdagi roli ortib borayotganini e'tirof etdi. Inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi umumiy maqsadlarga erishishda "Marta" markazi O'zbekistonning tegishli tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishi har ikki tomon uchun ham muhimligi ta'kidlandi.

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR MANFAATLARI DAVLAT HIMOYASIDA

Kecha Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Qo'shma majlis

Unda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoyalash, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash hamda bu borada Farg'ona viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, yurtimizda so'nggi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan ko'lamlil islohotlar bajarildi. Xususan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya etilib, uni amalga oshirish bo'yicha 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasiga qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar ijrosi doirasida nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar va tibbiy yordamlar ko'lami kengaymoqda. Shuningdek, inklyuziv ta'lim, qulay hamda to'siqsiz muhit yaratish yo'nalishlarida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Farg'ona viloyatida 2023-yilda 2 895 nafar, 2024-yilda esa 8 472 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar umumiy qiymati 15,8 mlrd. so'mlik protez moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlangan. Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar doirasida 2023-yilda 4 098 ta, 2024-yilda 5 013 ta imtiyozli yo'llanmalar berilib, 2023-yilda

1 035 nafar, 2024-yilda 1 122 nafar shaxsga jarrohlik amaliyoti ko'rsatilgan.

2024-yilda viloyatda "ayollar daftari"da ro'yxatda turgan nogironligi bo'lgan 9 882 nafar xotin-qizga 13,7 mlrd. so'mlik yordam ko'rsatilgan. Shu jumladan, I va II guruh nogironligi bo'lgan 6 741 nafar xotin-qizga 8,9 mlrd. so'mlik, nogironligi bo'lgan farzandi uchun 3 124 nafar onaga 4 mlrd. so'mlik bir martalik moddiy yordam berilgan, 17 nafar nogironligi bo'lgan shaxsning uy-joyi ta'mirlangan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga to'siqlarsiz muhitni yaratish maqsadida o'tgan yilda 9 ta tibbiyot muassasasidagi liftlar yangisiga almashtirilib, 41 ta tibbiyot muassasasidagi panduslar ta'mirlangan. 40 ta jamoat transporti vositasi nogironligi bo'lgan shaxslarga mos ravishda jihozlangan.

Majlisda ushbu sohada amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, mavjud muammolarga ham e'tibor qaratildi.

Xususan, viloyatda inklyuziv ta'lim tashkil etilgan 71 ta umumiy o'rta ta'lim maktabining 12 tasi maxsus pedagog-o'qituvchilar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, 19 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida ochilgan inklyuziv guruhlariga

nogironligi bo'lgan tarbiyalanuvchilar yetarlicha qamrab olinmagan.

Shuningdek, 2023-yilda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kvotalangan 2 525 ta ish o'rnidan 1 797 tasiga, 2024-yilda esa 2 632 ta ish o'rnidan 2 015 tasiga nogironligi bo'lgan shaxslar ishga joylashtirilmagan. Ayrim hududlarda bunday shaxslar uchun kvotalangan ish o'rinlari yaratilmagan holatlar ham uchraydi. Bu turdagi huquqbuzarliklar uchun 2023-yilda 46 ta, 2024-yilda esa 8 ta tashkilot rahbarlariga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanilgan. Bundan tashqari, tibbiyot birlashmalaridagi liftlarning ta'mirlanish holati, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalaridagi panduslarning standart talablarga javob bermasligi, piyodalar yo'laklarida nogironligi bo'lgan shaxslar harakatini cheklovchi to'siqlarning mavjudligi ham tanqid ostiga olindi.

Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan nogironlar uchun qulay muhit yaratish bo'yicha texnik qismlar mavjud bo'lmagan loyihalarga ijobiy xulosa berilgan holatlar aniqlangan achinarlidir.

Muhokama davomida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarurligi aytili hamda Senat qo'mitasi va xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashining qo'shma qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

XOTIN-QIZLAR FAOLLIGI

Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi doirasidagi asosiy tadbirlardan biri gender tenglik mavzuga bag'ishlandi. Bu masalaning dunyo parlamentlari vakillari tomonidan muhokama qilinishi bejiz emas.

Mushohada

Tahlillarga ko'ra iqtisodiyotning barcha tarmog'ida ayollarning erkaklar bilan teng ishtiroki ta'minlansa, jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 26 foizga o'sar ekan.

Bu borada ko'zlangan natijalarga erishishda xotin-qizlarning barcha sohada, ayniqsa, parlamentdagi faolligi alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda dunyoda ayni masalada ijobiy



natijalarga erishilayotgani quvonarli. Ayniqsa, so'nggi 30 yilda jahon parlamentlaridagi ayollar ulushining 11,3 foizdan 27,2 foizgacha o'sgani ayni muddad.

O'zbekiston ham dunyoning tez rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri sifatida gender masalasiga ustuvor ahamiyat bermog'ida. Bu borada so'nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida olib borilgan ishlar, xotin-qizlarning huquqiy himoyasi va

gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha milliy model yaratildi. Konstitutsiya darajasida, shuningdek, mamlakatning strategik hujjatlarida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Shuningdek, yangi, xalqaro standartlarga mos milliy quvunchilik bazasi hamda institutsional asoslar shakllantirildi. Mamlakat darajasida, eng quyi bo'g'in – mahallagacha xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanadigan uzviy tizim yo'lga qo'yildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi mexanizmlar yaratildi.

Amalga oshirilgan ishlar

natijasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvida ishtiroki ortmoqda. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarining yarmidan ziyodini qizlar tashkil etadi. Shuningdek, so'nggi yillarda ishlab chiqarishda safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'yganlar soni 205 mingdan oshdi.

Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 35 foizga, siyosiy partiyalarda 49 foizga yetdi. Milliy parlamentimizda ularning ulushi 38 foizlik darajada va bu bilan Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko'rsatkichni qayd etganini Parlamentlararo Ittifoq a'zolari ham bir ovozdan e'tirof qildi.

Albatta, bu yutuqlar quvonarli. Ammo bugun zamon barchamizdan

bu boradagi harakatlarimizni o'zaro uyg'unlashtirish va yanada faollashtirishni talab etmoqda. Assambleya doirasida bo'lib o'tgan muhim tadbirlardan biri – dunyo parlamentari ayollari forumi bu borada aloqalarni kengaytirishda muhim platforma sifatida xizmat qilishi tabiiy.

O'z navbatida, bunday xalqaro tadbirlarda yo'lga qo'yiladigan o'zaro muloqotlar jahondagi millionlab ayollarning hayotini yaxshilashga hissa qo'shishi, shubhasiz.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

"Xalq so'zi".

"YANA O'ZBEKISTONGA KELISH IMKONIYATINI QO'LDAN CHIQARMAYMAN"

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi o'z ishini yakunlaganiga hali ko'p vaqt bo'lmadi. Anjuman asnosida jannatmondan yurtimizga tashrif buyurib, uning betakror tarovatidan bahramand bo'lgan, o'z diyoriga olam-

olam taassurotlar bilan qaytgan xorijliklar O'zbekiston haqida, uning bag'rikeng insonlari to'g'risida iliq fikrlar bildirishda davom etmoqda. Quyida ularning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz.

Samarqand shahrida ham bo'lganin unutmas damlarni hadya etdi.

Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi bahona yurtimizda bo'lar ekanman, ajoyib mehmondostlik va yuqori darajadagi tashkilotchilik uchun barchaga o'z minnatdorligimni bildiram.

Yana O'zbekistonga kelish imkoniyatini qo'ldan chiqarmayman.

Kaxuranga KARTER,
Yangi Zelandiya parlamenti a'zosi, deputat:

– Parlamentlararo Ittifoq assambleyasining tashkiliy jarayoni ham, Toshkent shahri ham bizni

chinakamiga hayratga soldi. Qisqacha aytganda, hammasi a'lo darajada o'tdi.

Prezidentingiz o'z nutqida O'zbekistonning barqaror global taraqqiyotga e'tibor qaratayotganini alohida ta'kidlagani meni to'qlantirdi. Tabiat bilan va bir-birimiz bilan uyg'unlikda yashashimiz uchun barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida ham rivojlanayotgan, ham rivojlangan mamlakatlar birgalikda harakat qilishi muhim deb hisoblayman.

O'zbekiston yetakchisi butun dunyoda bolalar uchun xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqlim

o'zgarishiga qarshi kurashish kabi eng muhim global muammolarga to'xtalib o'tdi. Ishonchim komilki, birgalikda qanchalik ko'p harakat qilsak, bu maqsadlarga shunchalik tez erishamiz.

O'zbekiston, haqiqatan ham, Markaziy Osiyoning durdonasidir. Yurtimizning ko'plab go'zal va betakror joylarida bo'ldik, bu biz uchun ulkan taassurotlar berdi. Mamlakatimiz haqida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldik va bu taassurotlarimizni o'z yaqinlarimiz, hamkasblarimiz bilan baham ko'ryapmiz, albatta.

"Xalq so'zi".



Hoson FAYDOYEV o'zining surtidir.

AZMU SHIJOATDA BARCHAGA IBRAT

Mamlakatimizning barcha hududi kabi Andijon viloyati ham bugun izchil rivojlanmoqda. Shahar va qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgarib, odamlarning turmush farovonligi yildan-yilga oshib bormoqda.

Bu – davlatimiz rahbari boshchiligidagi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi manfaatlarini ustun bilib, ularning yaxshi yashashiga zarur shart-sharoitlar yaratib berish kabi ustuvor masalalarga davlat siyosati darajasidagi e'tibordan dalolat.

Ushbu viloyat haqida gap ketganda, avvalo, Zahiriddin Muhammad Bobur yodimizga tushadi. Andijon ana shunday ajdodlar voyaga yetgan zamin. Andijonliklar bilimi hamda matonati bilan katta ishlarga qodirlikni mana shu dalil ham isbotlab turgandek go'yo.

Prezidentimiz Andijon viloyatiga bu galgi tashrifi ham keng qamrovli, samarali bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Davlat rahbari hududda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar, yirik loyihalarning borishi va bunyodkorlik ishlari bilan tanishish jarayonida faollar, yoshlar, tadbirkorlar bilan uchrashib, ular faoliyatiga ruh berdi, motivatsiya berdi.

Tashrif davomida Yangi Andijon shahrini Bobur shahri, deb nomlash bo'yicha tashabbus ilgari surildi va bu keng jamoatchilik tomonidan birdek qo'llab-quvvatlandi. Ulug' ajdodimiz hamda uning avlodlari bunyod qilgan tarixiy obidalarining timsolidan iborat tematik park barpo etilishi esa ayni muddao bo'ldi.

Ushbu shaharda yana ko'plab loyihalar, tashabbuslar hayotga tatbiq etiladiki, bularning barchasi shaharni

ma'rifat va madaniyat markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Andijonliklar a z a l d a n mirishkorligi, izlanuvchanligi bilan mashhur. Ular har bir qarich yerdan unumli foydalanishni biladi. Ta'kidlanganidek, joriy yildan boshlab tomorqadan foydalanish bo'yicha yangi tizim ishlatilmoqda. Masalan, Asaka tumanining Otish mahallasidagi 810 ta xonadondan 805 tasida issiqxonalar mavjud bo'lib, ularda yiliga uch marta hosil olinayotgan fikrimiz tasdig'i. Xuddi shunday, Obod mahallasidagi yuzlab xonadon egalari ham issiqxonalaridan samarali foydalanib, oilasi butligi va farovonligini ta'minlayotgani kishini quvontiradi.



Faollar yig'ilishida davlatimiz rahbari ushbu masalalarga ham alohida to'xtalib, viloyatdagi qolgan 907 ta mahallada ham bu tajribadan unumli foydalanish muhimligini qayd etdi. Asakadagi mahallalarga arzon urug' va mineral o'g'it yetkazib berish tizimi esa butun respublikada joriy qilinadigan bo'ldi.

Aytish joizki, olib borilayotgan mana shunday islohotlar sababli, o'tgan yili Andijonda kambag'allik 11,9 foizdan 9,5 foizga tushdi. Bu ham vodiyliklarning mirishkorligi, ishning ko'zini bilishi va mehnatkashligidan dalolatdir.

Bu hali hammasi emas. Baliqchi va Oltinko'lda 5 gektardan issiqxonalar tashkil etilib, yuzta ehtiyojmand oila daromadli qilindi. Issiqxonalar kambag'al oilalarga o'n sotixdan ikki yilga ijaraga berilgan. Yiliga uch marta hosil olish hisobiga har bir oila 150 – 200 mln. so'mdan daromad

topadi. Tadbirkor ko'chat, urug', o'g'it hamda yoqilg'ini yetkazib berib, hosilni o'zi sotib oladi.

Mana buni haqiqiy ishbilanmonlik, desa bo'ladi. Zero, bugun bir kishini ishli qilish bilan ham yurtga, xalqqa foyda keltirish mumkin. Biz bugun mana shunday kuch bilan, aql bilan ishlaydigan zamonda yashayapmiz.

Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, agar barchamiz bir bo'lib, hamijihat bo'lib ish olib borsak, yutuqlarimiz yanada ko'payadi, biz zabt etolmaydigan marraning o'zi bo'lmaydi, Andijon yanada obod bo'ladi. Albatta, bu jarayonlarda mehnatkash, bir so'zli va tanti Andijon ahlining azmu shijoati barchaga ibrat bo'ladi, shubhasiz.

Muqaddasxon AHMEDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BUNYODKORLIK ISHLARI KO'LAMI KENGAYMOQDA

Prezidentimizning Andijon viloyatiga har gal tashrifi hududda muhim o'zgarishlarga, aholi kayfiyati ko'tarilib, ularning osuda, farovon hayot kechirishi, o'z orzu-istaklariga erishishi uchun barcha qulaylik yaratilishiga imkon beradi, desak, aslo yangilashmaymiz.



Agar hududning yaqin tarixiga nazar tashlasak, yaqin-yaqin gacha Andijon viloyatida 2017-yilga qadar Asaka avtomobil zavodidan bo'lak ko'zga ko'ringan korxonani topish qiyin edi. Bugun esa viloyatda jami 53 892 korxona va tashkilot faoliyat ko'rsatyapti. Shundan 47 758 tasini kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etishi e'tiborga mo'lik.

Mazkur hududning iqtisodiy salohiyati ham yuqori. Davlatimiz rahbarining 2024-yil fevral oyida viloyatga tashrifi davomida belgilangan vazifalar hudud rivojiga qo'shimcha turki berdi. Sanoat, tadbirkorlik, savdo, xizmat ko'rsatish, turizm va qishloq xo'jaligi sohalarda yuqori natijalarga erishildi.

Andijon eksport ko'rsatkichi borasida ham yetakchi viloyatlardan sanaladi. O'tgan yili bu yerning eksport hajmi 1 mlrd. dollardan oshdi. Vaholanki, 2016-yilda bor-yo'g'i 266 mln. dollarlik eksport amalga oshirilgan. Boshqacha aytganda, oxirgi sakkiz yilda eksport hajmi 3,5 barobar ko'paydi.

Andijon mamlakatimizdagi hududi jihatidan eng kichik, aholisi esa zich yashaydigan viloyat. Aholini o'ylantirib kelayotgan muammolarning aksariyati ham uy-joy bilan bog'liq. Bu yerda 2016-yilgacha 4 846 ta oila uchun yakka tartibdagi bir-ikki qavatli uylar qurilgan bo'lsa, 2016 – 2024-yillar davomida 34 mingdan ortiq xonadonlarga ega 1 mingdan ziyod ko'p qavatli uy-joylar qad rostlandi.

Zamonaviy uy-joy qurish uchun yer tanqisligi bois Yangi Andijon shaharchasi bunyod etishga qir-adirlar tanlandi. Prezident tashabbusi bilan mamlakat tarixida ilk bor, ancha yillardan buyon qaqrag yotgan adirkilarda ko'p qavatli turarjoylar bunyod qilindi. Ochig'i, bu ish amalga oshishiga oddiy odamlarni qo'ya turing, quruvchilar ham boshida shubha bilan qaragan edi.

Qat'iyat bor joyda natija bo'lishi yana bir bor o'z isbotini topdi. Qurilish sakkiz bosqichda rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda 1 770 ta xonadonli 63 ta uy foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 1 680 o'rinni maktab, 420 o'rinni bolalar bog'chasi, 250 qatnovga mo'ljallangan poliklinika qurildi.

19 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo etilib, o'n ming tupdan ko'p manzarali daraxt ko'chatlari, buta va gullar ekildi. Amfiteatr, dam olish joylari, dekorativ yo'laklar, kafelar, bolalar o'yingohi, yoritish tizimlariga ega bo'lgan bog' Yangi Andijonning ko'rki bo'ldi.

Prezidentimiz ushbu bog'da bo'lib o'tgan xalq saylida betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz – Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shahriga Bobur shahri, deb nom berishni taklif etdi. Bu, o'z navbatida, viloyat ahlining ayni dildagi gap bo'lib, ularning kayfiyatini yanada ko'tardi.

Loyiha ko'lini keng – hududning 1 439 gektarida 2 mingta ko'p qavatli turarjoy qad rostlaydi. Shuningdek, ko'plab savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, 1 820 gektarda yashil hududlar tashkil etiladi. Qurilishlar bitgach bu yerda 410 ming nafardan ziyod aholi yashashi mumkin bo'ladi. Xullas, qurilish, bunyodkorlik ishlari natijasida viloyat respublikamizning eng obod, ko'rkam hududlaridan biriga aylanadi.

Bugun Andijonda avtomobilsozlik, mashinasozlik, to'qimachilik, elektr texnikasi, raqamli texnologiyalar, qurilish materiallari, oziq-ovqat, gulchilik, asalarichilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarda samarali yutuqlarga erishilyapti. Hozir bu yerda 11 mingdan ziyod sanoat korxonalar bor. Ularning respublika sanoatidagi ulushi 10 foizdan yuqori. Ushbu tashrifdan keyin o'sish yanada yuqorilashi muqarrar. Zotan, Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, uning nafasi har bir mahalla va xonadonga kirib borayotir.

Aholining kayfiyatini ko'tarigan mazkur tashrif davomida belgilab berilgan zalvarli vazifalar, shubhasiz, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib, uning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, biz bu borada yanada faol bo'lib, ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o'rnatib borishimiz maqsadga muvofiq.

Anvarjon NURMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TARIXIY MEROSDAN ZAMONAVIY RIVOJLANISH SARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga navbatdagi tashrifi nafaqat hududni rivojlantirish, balki mamlakatimiz kelajagini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlarni ko'rsatdi, desak, mubolag'a emas. Inchinun, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar orasida eng muhimlaridan biri – Yangi Andijon shahriga buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomini berish taklifi bo'ldi. Ushbu g'oya faqatgina nomlash emas – balki tarix, madaniyat, ma'naviyat va zamonaviy rivojlanish uyg'unligini ifoda etuvchi strategik qarashdir.



Bundan tashqari, shahar konsepsiyasida Bobur merosini abadiylashtiruvchi tematik park, rassomlar festivali kabi tashabbuslar ham o'z ifodasini topadi. Bularning barchasi yoshlarda tarixiy xotiraga hurmat va zamonaviy yondashuvni uyg'otib, madaniy hayotni jonlantiradi.

Prezidentimiz yoshlarni tadbirkorlikka va yer resurslaridan samarali foydalanishga o'rnatishning muhimligini ta'kidlab, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida urg'u berdi. Ayniqsa, maktablarda kasb yo'nalishlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish, bu jarayonga sanoat va savdo korxonalarining mutaxassislarini jalb etish orqali yoshlarni zamonaviy kasblar hamda zarur ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar mamlakatimiz taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratishi, shubhasiz.

Shuningdek, turizmni rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xonobod shahridagi Kampirovot mahallasida 92 gektar maydonda zamonaviy turizm markazini tashkil etish, Buloqboshi tumanidagi Shirmonbuloq hamda Xo'jaboddagi Tosh ota mahallalarida ham shunday sayyohlik maskanlarini yaratish rejalashtirilmoqda. Mazkur tashabbuslar amalga oshsa, viloyatga qo'shimcha bir million sayyohni jalb etish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirish, balki yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish va turizm sohasida ularga imkoniyatlar taqdim etishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Yig'ilishda transport infratuzilmasini yaxshilash masalasi ham ko'tarildi. Andijon shahrini viloyatning boshqa hududlari bilan bog'lovchi samarali jamoat transporti tizimi yaratilishi zarurati alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, yangi avtobus va transport rsumlarini joriy etish hamda yo'lovchilarni yanada qulayroq tarzda xizmat bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Bu esa viloyatdagi yashash sharoitlarini yaxshilashga va aholining kundalik hayotini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Avazbek ARABBOYEV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamenti a'zosi.

SHAHARGA BUYUK AJDOD NOMI BERILISHI MILLIONLAB INSONLARNING DILIDAGI ARMONLAR USHALISHIDIR

Panjob universiteti qoshidagi Bobur merosi markazi direktori Ruksana Iftixor (Pokiston) "Dunyo" AA uchun intervyusida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi Andijon shahriga Bobur shahri deb nom berish tashabbusi haqidagi fikrlarini bildirdi:



– O'zbekiston Prezidentining Andijondagi nutqi va bildiring taklifi Pokistonda katta aks sadoga sabab bo'ldi. Bu shunchaki shaharsozlik tashabbusi emas, balki Boburning buyuk shaxsi bilan tarixiy va madaniy aloqadorlikni his qilayotgan millionlab insonlar dilidagi armonlardir.

Men tarixchi sifatida bu

voqeadan juda hayajonlandim. Pokiston uchun Bobur nafaqat buyuk sulola asoschisi, balki madaniy timsol, qalamkash va falsafiy fikr egasidir. Uning nomi adabiyotga bo'lgan nozik did, tabiatga muhabbat, she'riyat va me'morchilik bilan bog'liq. Binobarin, Bobur nomi bilan atalgan shaharning barpo etilishi

shunchaki xotira tadbiri emas, balki O'zbekiston va Janubiy Osiyo o'rtasidagi umumiy merosga hurmat asosidagi jonli muloqot ifodasidir.

O'zbekiston Prezidentining Andijon shahridagi amfiteatrni xalq amaliy san'ati markaziga aylantirish to'g'risidagi qarori ham alohida e'tiborga loyiq. Bu xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy yaqinlashuvning muhim platformasiga aylanishi mumkinligiga ishonaman. Pokistonlik rassomlar ushbu noyob maydonda o'tkaziladigan festivallar va ijodiy loyihalarda ishtirok

etishdan mamnun bo'ladilar deb o'ylayman.

O'zbekiston o'z nigohini faqat o'tmishga emas, balki kelajakka ham yo'naltirganini yana bir bor isbotladi. Bobur xotirasining tug'ilib o'sgan Andijonda ulug'lanishi tarixiy adolat, shu bilan birga, muloqotga da'vat sifatida baholash mumkin. Biz Pokistonda ushbu tashabbusni chin dildan yuksak baholaymiz hamda u mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy va ilmiy almashuvlarni kengaytirishga turki bo'lishiga ishonchimiz komil.

"Dunyo" AA
Lahor

HUDUD TARAQQIYOTIGA E'TIBORNING YUKSAK NAMUNASI

Prezidentimizning Andijon viloyatiga bu galgi tashrifi hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi turmush darajasi sifatini yanada oshirish, mavjud muammolarni joyida o'rganish va hal etishga qaratilgan izchil islohotlar siyosatidagi navbatdagi yangi bosqich bo'ldi.

Ayonki, Andijon viloyati mamlakatning iqtisodiy, madaniy va demografik jihatdan muhim hududi sifatida doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Shu bois ham davlat rahbarining mazkur hududga tashrifi mamlakat taraqqiyotida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezident tashrif davomida mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy va har jihatdan yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning Andijon viloyatidagi ijrosi bilan yaqindan tanishdi. Eng avvalo, viloyat iqtisodiyotining bugungi ko'rsatkichlari va kelgusidagi rivojlantirish rejalarini e'tibor markazida bo'ldi.

Bugungi kunda viloyatda tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlashga ahamiyat qaratilayotgani natijasida 11 mingdan ziyod sanoat korxonalari bir maromda faoliyatini olib bormoqda. Jumladan, 47 ta sanoat zonasida 2,3 trillion so'mlik 1000 ta loyiha amalga oshirilishi hisobidan 18 ming kishi yangi ish o'ri bilan ta'minlanishiga erishilgan.

Hozirgi vaqtda 1 milliard dollarlik 288 ta investitsiya loyihasi ro'yobga chiqarilishi rejalashtirilgan. Xususan, joriy yil davomida 119 ta loyihani ishga tushirish, 4 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda qayd etish joizki, davlatimiz rahbari o'tgan yil fevral oyida Andijonga tashrifi chog'ida ko'plab istiqbolli loyihalar bilan tanishib, viloyatda olib borilayotgan qurilish, bunyodkorlik ishlari ko'lami kengaytirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini jadal rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish yuzasidan tegishli vazifalarni belgilab bergan edi.

Buning natijasida o'tgan yili viloyatda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi

2023-yildagiga nisbatan sezilarli darajada o'sdi. Joriy yilning birinchi choragida esa investitsiya loyihalari samarasida hamda tijorat banklari ishtirokida 77 ming nafar fuqaro ish bilan ta'minlangan.

Bu gal ham tashrif davomida hududda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishilib, zarur ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hayoti bilan yaqindan tanishildi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari viloyat ahli bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilib, ularning o'y-fikrlari bilan qiziqdi. Bu muloqotlar asosida aniq vazifalar belgilandi va ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi nafaqat hudud taraqqiyotiga yangi sur'at berdi, balki ulkan imkoniyatlarimizni ishga solish, uni yanada taraqqiy ettirishning yorqin namunasi aylandi.

Navro'zbek YUSUPOV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

KELAJAKKA QURILAYOTGAN MA'NAVIY KO'PRIK

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida bugun Andijonga yangi hayot, yangi kayfiyat kirib keldi.



Ma'lumki, har o'ning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish, odamlarni o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida hududlarda bo'lib saylovchilar bilan muloqotlar o'tkazamiz. Ochig'i, andijonlik bo'lganmi bois har safar viloyatimizga borganimda biror-bir o'zgarishlarga ko'zim tushadi.

Hozirgi vaqtda hududda yangilanishlar nafasi kirib bormagan birorta qishloq va mahalla qolmadi hisob. O'n – o'n besh yil avval xalqimiz orzu qilgan maishiy xizmat maskanlari, zamonaviy maktab va bog'chalar, tibbiyot muassasalari bugun aholi, yoshlarimiz xizmatiga shay.

Oddiy misol. Yaqin-yaqin gacha viloyatda ta'mirlanib maktablar, tomlari loysuvuqli

uylar bo'lgan bo'lsa, bugun ular keskin kamaygan. Mavjud ta'lim muassasalari rekonstruksiya qilinayapti, yangilari barpo etilmoqda. Xullas, yoshlarning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, o'z iste'dodlarini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoit va qulayliklar yaratilgan.

Yoki qisqa davrda tibbiyot tizimida yuz bergan yangilanishlar odamlarda islohotlarga ishonch, yurt taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirmoqda. Zero, bugungi kunda Andijondagi 400 dan ziyod mahallalarda aholiga tunu kun xizmat ko'rsatadigan xususiy tibbiyot punktlari tashkil qilindi.

Davlatimiz rahbarining 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatiga tashrifi odamlar kayfiyatini yanada ko'tardi, ulami faollikka chorladi. Ayniqsa, aholi vakillari bilan o'tgan uchrashuvlar, muloqotlar, yangi loyihalar taqdimotlarida bildirilgan fikrlar, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar Andijon farzandi sifatida meni ham g'oyatda xursand qildi. Xususan, Buloqboshi tumanida Andijon viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda hududda zamonaviy xususiy klinikalar tashkil etish uchun olti oy davomida sotilmagan davlat obyektlari tadbirkorlarga to'g'ridan-to'g'ri 5 yil muddatga ijaraga, keyinchalik esa bu obyektlar ularning o'ziga xususiy lashtirib berilishi urg'ulandi. Bu esa aholining sifatli tibbiy xizmatdan samarali foydalanishiga va ularning hayotdan

rozi bo'lib yashashlariga xizmat qiladi.

Ayonki, Andijon – yurtimizning tarixiy shaharlaridan biri. Bugungi kunda viloyatda barcha soha va tarmoqlar jadal rivojlanmoqda. Ayni paytda bu yerda juda katta salohiyat mavjud. Shunday tashrifdan keyin o'sish yanada yuqorilashi muqarrar. Zotan, Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, uning nafasi har bir mahalla va xonadonga kirib borayotir.

Davlatimiz rahbari mazkur bog'dagi xalq saylida Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish tashabbusini ilgari surdi. Bu xalqimizning ayni ko'nglidagi ish bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Bu yerda buyuk shoir va sarkardaning haykali o'rnatilishi, atrofiga tematik bog' va boburiylar merosi bilan bog'liq ekspozitsiyalar tashkil

etilishi to'g'ri hamda oqilona qaror bo'ldi, deb o'ylayman. Zero, bu nafaqat tarixiy xotira, balki kelajakka qurilayotgan ma'naviy ko'prikdir.

Bugun Andijon islom madaniyati va ilmiy meros markaziga emas, balki zamonaviy shaharsozlik namunalaridan biriga aylanayapti. Uzoqni ko'zlab yuritilayotgan xalqochi siyosat tufayli odamlarga orzu-havaslari, faxr-iftixor qaytmoqda, shodlik qaytayotir. Inson qadri yuksalmoqda.

Ushbu qutlug' tashrif, chin ma'noda, odamlar turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, andijonliklar hayotiga baraka kiritishga xizmat qiladi. Demak, har birimiz islohotlar jarayoniga o'z hissamizni qo'shishimiz, inson qadri ulug'langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch-salohiyatimizni safarbar etishimiz lozim.

Yekaterina SMESOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

MINTAQAVIY BIRDAMLIKNING YORQIN IFODASI

Bugun O'zbekiston ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritib, dunyo mamlakatlari, xususan, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik hamda o'zaro hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tufayli amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlar, yangilanishlar o'z samaralarini berayotganini amaliy sa'y-harakatlar misolida ko'rib turibmiz.

Nuqtai nazar

Yaqinda qo'shni Tojikistonning Xo'jand shahridagi uch tomonlama mashvart mintaqaviy siyosat tarixidagi tub burilish nuqtasiga aylandi, desak, ayni haqiqat. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Prezidentlari davlat chegaralarining tuzash nuqtasi haqidagi shartnomani imzoladi. Mazkur hujjat Tojikiston hamda Qirg'iz Respublikasi o'rtasidagi o'ttiz yildan ziyod davom etgan bahs, chegara borasidagi noaniqlik, vaqti-vaqti bilan alanga olib turadigan nizolarga huquqiy yechim bo'ldi. Qolaversa, "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi Xo'jand deklaratsiyasi qabul qilindi, ramziy Do'stlik stelas o'rnatildi. Mamlakatlar o'zaro ratifikatsiya hujjatlarini almashdi.



manfaatlarini kesishgan murakkab geosiyosiy konfiguratsiyaga ega nuqtaga aylandi. O'tmishdan meros bo'lib qolgan suv, energetika, chegara masalalari uzoq vaqt barham topmadi. Ta'bir joiz bo'lsa, uch davlatning hududlari tutashgan Farg'ona vodiysi ko'p millatli, ishsizlikning yuqori darajasi, chegaralar chigalligi, ijtimoiy muammolar yuqunib og'irliги bilan har daqiqada portlashi mumkin bo'lgan poroxga o'xshardi.

Mintaqaning murakkab tarixi, o'tgan davrlarda uch respublika o'rtasidagi hududiy chegaralanish muammosining yechilmay qolgan vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Boz ustiga O'zbekistonning vodiydagi uchta viloyati respublika hududining faqat o'ndan bir qismini tashkil etsa-da, aholisining 30 foizdan ortig'i istiqomat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik hamda sheriklik muhitini shakllantirish borasidagi intilishlari, tashabbuslari va qat'iyati tufayli burilish nuqtasi shakllandi.

Ayniqsa, suv hamda chegara muammolarini yechishga kirishildi. Barcha qo'shni davlatlar bilan demarkatsiya va delimitatsiya ishlari deyarli yakunlandi.

Ammo yonimizdagi ikki davlat – Qirg'iziston va Tojikiston munosabatlarini hammamizni xavotirga solib keldi. O'zbekiston o'z niyatlarini aniq harakatlar bilan tasdiqlab, 2023-yilda Qirg'iziston bilan chegaraning delimitatsiyasini yakunladi va ikki tomon sezilarli hududiy imtiyozlarga bordi. Shu orqali mintaqaviy barqarorlik uchun murosaga tayyorligini namoyish etdi. O'zbekistonning bu ibratli harakatidan so'ng Tojikiston ham Qirg'iziston bilan barcha chegara masalalarini hal qiladi. Uning tartibga solinishi esa mintaqada sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, savdoni rivojlantirish, tadbirkorlikni keng yo'yish, yangi industrializatsiya jarayonlari kabi vazifalar bajarilishi uchun po'ydevor bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

ortib terini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashgacha. Yirik loyihalar ham mavjud, masalan, avtomobil yig'ish korxonalari.

Umuman, uch tomonlama uchrashuv formati nafaqat Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston uchun, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi, barqarorligi hamda farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu investitsiyalar rejasi va Yevroosiyo hududida xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan bog'liq. Chegara nizolarini hal etish narkotrafik, qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda turli radikal elementlar harakatlanishi mumkin bo'lgan chegarani samarali nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning transport-logistika tizimini rivojlantirishda katta imkoniyat hamda vositalar mavjudligi haqida ijobiy signal hamdir.

E'tiborlisi, Tojikiston va Qirg'iziston bilan o'nlab yangi chegara punktlari ochildi. Tojikiston bilan tovar

"shengen g'oyasi" rasman tilga olandi. Bu – xorijdan kirib keladigan sayohatlar uchun umumiy viza, mintaqa xalqlari uchun talab qilinmaydigan makon, bojxona hamda migratsiya siyosatini uyg'unlashtirish loyihasi.

Shu ma'noda, qo'shni mamlakatlar o'rtasida viza tartibi ancha soddalashtirildi. Natijada o'zaro sayohat oqimi tezlashdi. Tojikiston va O'zbekiston fuqarolari viza rasmiylashtirmasdan 30 kungacha ikki mamlakat hududida qolishi mumkin. Qirg'iziston hamda O'zbekiston o'rtasida 60 kungacha vizasiz rejim o'rnatilgan. 2023-yil 1-sentyabrda esa bu ikki davlat fuqarolarining o'zaro sayohati uchun chet el pasportlari o'rniga ID-kartadan foydalanish imkoniyati yaratildi. Qarangki, bir paytlar sarob hisoblangan g'oya bugun integratsiyaning mantiqiy bosqichiga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbari "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammitida ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo Yer yuzining chetidagi nuqta emas. Aksincha, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni tutashdiradigan chorraha. Yaqin bir necha yil ichida ishga tushadigan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li, Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar transport koridori, "CASA-1000" orqali Tojikiston hamda Qirg'iziston elektr energiyasining Janubiy Osiyoga yetkazilishi, Farg'ona, So'g'd va Botkendagi xalqararo yo'l-korxonalar mintaqa qiyofasini butkul o'zgartirib yuborishi aniq.

Uch qo'shni mamlakat rahbarlarining Xo'janddagi tarixiy uchrashuvi mintaqaviy integratsiyaning yanada jadallashuviga, iqtisodiy va infratuzilma loyihalarida yaqin hamkorlik kengayishi va Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

G'ofurjon ZOHIĐOV, Qo'qon universiteti direktori, dotsent.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

Tashqi savdo axborot tizimi sinov bosqichida



Bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan va ko'plab qulayliklarga ega bo'lgan "E-kontrakt" tashqi savdo axborot tizimi sinov tariqasida ishga tushirildi.

Ma'lumotlarga ko'ra yaqin kunlarda ushbu tizimni to'liq ishga tushirish rejalashtirilgan. U <https://contract.customs.uz> manziliida joylashtirilgan bo'lib, ushbu dastur yordamida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'zlarining tashqi savdo shartnomalari ma'lumotlarini shakllantirish, ularning ijrosini kuzatib borishi mumkin.

Qolaversa, bojxona hamda bank operatsiyalari bo'yicha ma'lumot va hisobotlar, shuningdek, notarif choralar haqida axborot olish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Qurilayotgan obyektning QR-kodli pasporti joriy qilinadi

Prezidentimizning tegishli Farmoniga ko'ra 2025-yil 1-sentyabrdan har bir qurilayotgan obyektning QR-kodli pasporti joriy qilinadi.

Bu orqali shaharsozlik subyektlari, qurilish muddatlari, shaharsozlik hujjatlari va tasdiqlangan ekspertiza xulosalari haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, ko'p kvartirali uylardagi joylarni, shuningdek, yerto'lalarni qayta qurish va rejalashtirishda shaharsozlik normalarini buzgan holda uyning konstruktiv qismlari va tayanch devorlariga o'zgartirish kiritish, buzish hamda binoning zilzilaga bardoshligiga salbiy ta'sir qiladigan ishlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Bilimli ayol – millat tarbiyachisi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan "Bilimli ayol – yorqin kelajak tarbiyachisi!" shiori ostida "Zakovat" intellektual shou-musobaqasi tashkil etildi.

Unda yurtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining tajribali va ilm-fan fidoyisi bo'lgan ayol professor-o'qituvchilari qatnashdi.

Bellashuv ishtirokchilarga nafaqat o'zlarining fundamental va amaliy bilimlarini namoyon qilish, balki jamiyat hayotining barcha sohasida xotin-qizlar ishtirokini yanada kengaytirish, ularning ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini tahliiliy yondashuv asosida muhokama etish imkonini berdi.

Har bir qatnashchi o'zining puxta tayyorgarligi, mustaqil fikrlashi va zamonaviy qarashlari bilan ajralib turdi. Ayol ziyolilarning intellektual yondashuvlari, ularning strategik fikrlash qobiliyati musobaqa jarayonida yorqin namoyon bo'ldi.

Yakunda g'oliblar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yangi avlod muhandislari festivali

Shu kunlarda "Yangi avlod muhandislari – yangi davr texnologiyalari" shiori ostida "Kelajak muhandislari" xalqaro festivali bo'lib o'tmoqda.



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan uyushtirilgan ushbu festival kelajakni bugundan yaratadigan ijodkor yoshlar uchun innovatsion platforma bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Toshkentdagi "INNO" texnoparkida festival doirasida "3D" modellashtrish musobaqalari bo'lib o'tdi. Bellashuvlarda oliy ta'lim muassasalari talabalari va erkin amaliyotchilardan tarkib topgan 270 dan ziyod ishtirokchilar qatnashdi.

"3D" modellashtrish yo'nalishiga qiziquvchi yoshlarni muhandislik sohasiga jalb qilishga qaratilgan mazkur musobaqa ularning texnik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda kelajakda mamlakatimiz innovatsion salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

"Xalq so'zi".


SALOMATLIKKA

XIZMAT QILUVCHI TEXNOLOGIYALAR NAMOIYISHI

Mamlakatimizning "Yangi O'zbekiston" bog'iga tutash hududi – "CAEX Uzbekistan" xalqaro ko'rgazmalar markazida "Sog'liqni saqlash – TIHE 2025" 29-Toshkent xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Ko'rgazma

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Farmatsevtika tarmoqini rivojlantirish agentligi, "Itexa Exhibitions" xalqaro ko'rgazma kompaniyasi va boshqa tegishli tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan ushbu ko'rgazmada yigirmadan ziyod davlatlardan 400 dan ortiq kompaniyalar hamda brendlar qatnashyapti.



Ular orasida AQSH, BAA, Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Indoneziya, Ispaniya, Rossiya, Singapur, Turkiya, Ukraina, Xitoy, Qozog'iston kabi davlatlarning vakillari ham eng so'nggi rumsudagi texnologiyalarini namoyish qilmoqda. Buning uchun qatnashchilarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilgan.

Darvoqe, ushbu markazda bu yil birinchi marta estetik tibbiyot, "anti-age" parvarishi hamda go'zallik sanoatiga bag'ishlangan "Beauty Uzbekistan – 2025" ko'rgazmasi ham o'tkazilayotgi. Aytish kerakki, yurtimizda ijtimoiy sohaning boshqa yo'nalishlari qatori sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda texnik jihatdan takomillashtrish, xodimlarga xorijnikidan qolishmaydigan qulayliklar yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgi. Bu esa bugungi islohotlar samaralari va tub o'zgarishlardan ham yaqqol sezilib turibdi.

E'tiborlisi, ko'rgazma tibbiy diagnostika, laboratoriya jihozlari, jarrohlik, terapevtik uskunalar, jonlantirish moslamalari hamda soha uchun zarur bo'lgan barcha texnikani bir joyda jamlash imkonini

beradi. Bu mahalliy tibbiyotimiz uchun yangi uskunalarini xarid qilish, teng manfaatli shartnomalar tuzish borasida qulay platformani yaratadi.

Qolaversa, mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga bag'ishlangan "PharmExpo Central Asia – 2025" ixtisoslashtirilgan ko'rgazmasida farmatsevtika tarmog'i uchun xomashyo hamda komponentlar, shuningdek, tayyor dori vositalari namoyishga qo'yilgan.

Mahalliy farmatsevtika korxonalari vakillari bu yerda sanoatning so'nggi tendensiyalari, tayyor farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ingredientlar bilan yaqindan tanishish, dori vositalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha xorijiy kontragentlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lishyapti.

Tadbir doirasida stomatologiya amaliyoti uchun zamonaviy yechimlar, asbob-uskunalar, dori-dorimonlar hamda boshqa zarur vositalar ham taklif qilinmoqda.

"Xalq so'zi".

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish:

INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Prezidentimizning "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida global ekologik muammolarni hal qilishda ilm-fan hamda iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro tajribalari o'rganish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi qator vazifalar belgilangan.



SANOAT QURILISH BANK

E'tiborlisi, yurtimiz mezbonlik qilib kelayotgan nufuzli xalqaro anjumanlarda ham global iqlim o'zgarishi oqibatlari barta'raf etishning eng maqbul yo'li bu – "yashil" iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ekanini xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof qilinmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, "yashil" iqtisodiyotni izchil taraqqiyot topirishda moliya muassasalari ham faol qatnashyapti. Banklar tomonidan bu yo'nalishda bir qator istiqbolli loyihalar hayotga joriy etilib, bu o'zining ijobiy samaralarini ham bera boshladi.

"O'z sanoat qurilish bank" ATB tomonidan Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bilan hamkorlikda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish: muammolar va istiqbollar" mavzuidagi ilmiy-amaliy anjumaning uyushtirilishi ham soha rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjumanda mahalliy ta'lim va moliya muassasalari vakillari bilan bir qatorda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Fransiya taraqqiyot agentligi, Yashil o'sish bo'yicha global institut (GGGI), shuningdek, "Fitch Ratings", "PricewaterhouseCoopers", "BUREAU VERITAS" kabi nufuzli xalqaro tashkilotlardan yetakchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Tadbir davomida "yashil" iqtisodiyotdagi so'nggi tendensiyalar, "ESG" tamoyillari, qayta tiklanuvchi energiya hamda iqlim o'zgarishiga moslashish va uni yumshatish choralari, shuningdek, "yashil" moliyalashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Milliy "yashil" tasnifi shakllantirish va xalqaro sertifikatlash standartlarini joriy etish orqali barqaror rivojlanishga olib keladigan mexanizmlar ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, "O'z sanoat qurilish bank" ATB "yashil" iqtisodiyotga o'tishni o'zining strategik yo'nalishi sifatida belgilagan. Xususan, bank tomonidan o'nlab "yashil" loyihalar moliyalashtirildi, xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikda mijozlarga "yashil" kredit liniyalari taklif etilmoqda. "ESG" standartlari joriy qilingani qator muammolarga barham beryapti. Qolaversa, bank ekologik va ijtimoiy yo'nalishdagi tashabbuslari bilan moliya bozorida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Joriy yil boshida "Sustainable Fitch" xalqaro agentligi tomonidan bankimizga umumiy 59 ball bilan "3" darajali "ESG" reytingi berildi va bu bizning xalqaro miqyosdagi faoliyatimizni yuksaltirishda muhim qadam bo'ldi, – dedi anjumanda bank boshqaruvi raisi

o'rinbosari Shuhrat Yakubov. – Bundan tashqari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan bankimizning "yashil" savdoni moliyalashtirishdagi hisssasi bir necha bor e'tirof etildi. Xalqaro darajada bankning nufuzi oshib borishi bu nafaqat bizning, balki mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim yangilanishlarga omil bo'ldi.

Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori Ilhom Marjatqulov ta'lim sohasining mazkur jarayondagi o'rni haqida urg'u berdi.

– Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi faqat kadrlar tayyorlash maskani emas, balki kelajak yetakchilarini shakllantiruvchi, ekologik va texnologik xatirlarga javob bera oladigan transformatsiya markazi bo'lib xizmat qilmoqda, – dedi u. – Yana shuni alohida ta'kidlamochimanki, biz tayyorlayotgan kadrlar "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini mukammal o'rganmoqda va kelgusida ular bu sohaning yetuk mutaxassislari bo'lib mehnat bozoriga kirib boradi.

Anjumanda davomida ilg'or moliyaviy vositalar, banklarning barqaror o'sishga qo'shayotgan hisssasi haqida ham ma'ruzalar tinglandi. Ochiq mulohotlar, tajriba almashinuv va yangi xalqaro hamkorliklar uchun muhim asos yaratildi.

Bank axborot xizmati. Xizmatlar litsenziyalangan.

Toshkentda "UzCharmExpo-EurAsia – 2025" xalqaro charm mahsulotlari ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.49 Topshirildi – 00.05 1 2 3 4 5 6